

**AJ «FOYKON» NING 2025-YIL YAKUNLARI BO‘YICHA
AKSIYADORLARNING YILLIK UMUMIY YIG‘ILISHI
BAYONIDAN KUCHIRMA**

Toshkent sh.

2026-yil 25-may

O‘tkazilish joyi: Toshkent shahar, Mirobod tumani, Shahrisabz ko‘chasi, 16a-uy.
Aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishi o‘tkazilgan sana: 2026-yil 22-may,
boshlanish vaqti soat 10:00 da.

Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining bayonnomasi tuzilgan sana: 2026-yil 25-may.
Joylashtirilgan va ovoz beruvchi aksiyalarning egalari bo‘lgan aksiyadorlarning
ovozlari umumiy soni – **6 885 908 dona**,
shundan:

Aksiyalarning umumiy soni: **6 885 908 dona**

Ishtirok etayotgan aksiyalar soni: **4 183 944 dona**

Shundan:

Yig‘ilishga kelganlar: **11 kishi**

Kvorum: **60.76 %**.

Yig‘ilishda qatnashish uchun ro‘yxatdan o‘tgan ovoz beruvchi aksiyalar egalari bo‘lgan
aksiyadorlarning ovozlari umumiy soni – **4 183 944 dona** yoki kvorum **60.76 %**.

Raislik qiluvchi – R.R. Ahunov yig‘ilish kun tartibidagi masalalarni ko‘rib chiqishga
kirishishdan oldin yig‘ilishimizning vakolatligini, ya‘ni umumiy yig‘ilishni o‘tkazish
uchun kvorum mavjudligini aniqlashimiz kerakligini e‘lon qildi.

O‘zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning
huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida"gi Qonunning 68-moddasiga muvofiq – *"Umumiy
yig‘ilish (kvorumga ega bo‘lsa) jamiyatning joylashtirilgan ovoz beruvchi
aksiyalarining foizlarida vakolatlidir"*.

AJ «FOYKON» umumiy yig‘ilishi o‘tkaziladigan kunda ovoz beruvchi aksiyalarning
umumiy soniga ega – **6 885 908 dona**. Yig‘ilish boshlanishiga ovoz beruvchi
aksiyalarning egalari bo‘lgan va yig‘ilishda qatnashayotgan aksiyadorlar ro‘yxatdan
o‘tdi – **4 183 944 dona** yoki joylashtirilgan aksiyalar soniga nisbatan kvorum **60.76 %**
ni tashkil etadi.

Yig‘ilishni o‘tkazish uchun kvorum mavjud.

Yig‘ilishni ochish taklif etildi.

Mazkur taklif bir ovozdan qabul qilindi.

Shundan so‘ng, raislik qiluvchi aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishini o‘tkazish uchun
zarur bo‘lgan qator tashkiliy masalalarni hal qilishni taklif etdi:

3 kishidan iborat tarkibda Prezidiumni saylash taklif etildi.

Shaxsan:

1. AJ «FOYKON» Kuzatuv kengashi raisi Rashid Ravilovich Ahunov;
2. AJ «FOYKON» maslahatchisi Shavkat Tursunalievich Akbaraliev;
3. KNK nomzodi yoki aksiyador Andrey Vladislavovich Aleynikov.

Ovoz berishdi:

«TARAFDOR» – bir ovozdan, qo‘l ko‘tarish yo‘li bilan.

Qaror qildilar:

3 kishidan iborat tarkibda Prezidium saylansin.

Shaxsan:

1. Rashid Ravilovich Ahunov;
2. Shavkat Tursunalievich Akbaraliev;
3. Andrey Vladislavovich Aleynikov.

Yig‘ilishga aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishining ishchi organlari – kotibiyat va hisob komissiyasini saylash taklif etildi.

1 kishidan iborat tarkibda kotibiyatni saylash taklif etildi.

Shaxsan:

Irina Leonidovna Borodinets.

Ovoz berishdi:

«TARAFDOR» – bir ovozdan, qo‘l ko‘tarish yo‘li bilan.

Qaror qildilar:

Kotibiyat etib Irina Leonidovna Borodinets saylansin.

1-masala: Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi reglamenti va kun tartibini tasdiqlash.

Birinchi masala bo‘yicha: Raislik qiluvchi — R.R. Ahunov aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi kun tartibining reglamenti Kuzatuv kengashining 2026-yil 29-apreldagi majlisida tasdiqlanganini, u 9 ta masaladan iboratligini e‘lon qildi. Har bir aksiyadorning qo‘lida ovoz berish byulleteni mavjud bo‘lib, unda yig‘ilishda ko‘rib chiqiladigan barcha masalalar ko‘rsatilgan.

Kun tartibidagi asosiy masalalarni ko‘rib chiqishga kirishishdan oldin aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishini o‘tkazish reglamentini tasdiqlash zarur.

Kun tartibi:

№	Masalaning nomi	Vaqt (daqiqqa)
1.	2025-yil yakunlari bo'yicha AJ «FOYKON» aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi kun tartibini ko'rib chiqish va tasdiqlash.	5
2.	Hisob komissiyasining miqdoriy va shaxsiy tarkibini tasdiqlash.	5
3.	2025-yil yakunlari bo'yicha Kuzatuv kengashining hisobotini ko'rib chiqish va tasdiqlash.	5
4.	2025-yil yakunlari bo'yicha AJ «FOYKON» faoliyati natijalari yuzasidan ijro etuvchi organ hisobotini ko'rib chiqish va tasdiqlash.	5
5.	2025-yil yakunlari bo'yicha AJ «FOYKON» moliya-xo'jalik faoliyati yakunlari, biznes-reja ijrosi va hisobotini ko'rib chiqish va tasdiqlash.	5
6.	2025-yil yakunlari bo'yicha auditorlik xulosasini ko'rib chiqish va tasdiqlash.	5
7.	2025-yil yakunlari bo'yicha foyda va zarar schyotini ko'rib chiqish va tasdiqlash, foydaning taqsimlanishi.	5
8.	2026-yil uchun biznes-rejani ko'rib chiqish va tasdiqlash.	5
9.	2026-yilda majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun tashqi auditorlik tashkilotini tasdiqlash va uning xizmatlariga haq to'lashning eng yuqori miqdorini belgilash.	5
Jami	45 daqiqa	

Yig'ilishni muvaffaqiyatli o'tkazish va vaqtni tejash maqsadida quyidagi takliflar bildirildi:

- kun tartibidagi barcha ma'ruzalarni umumiy yig'ilishda tinglash – barcha chiqishlar va munozaralarga butun kun tartibi eshitib bo'lingandan keyin ruxsat etiladi;
- ma'ruzalar bo'yicha savollarni yozma shaklda berish;
- munozaralarda so'zga chiquvchilarga 3 daqiqadan ko'p bo'lmagan vaqt berish;
- so'zga chiqishdan oldin o'zini tanishtirish – F.I.Sh.ni va aksiyadorga tegishli aksiyalar sonini aytish;
- yig'ilishni rus va o'zbek tillarida o'tkazish.

Mazkur reglamentni butunlay tasdiqlash taklif etildi.
Ovoz berishdi:

- «TARAFDOR» – **4 183 944 dona** (60.76 %)
- «QARSHI» – **0 dona**
- «BETARAF» – **0 dona**

Qaror qildilar: AJ «FOYKON» aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi kun tartibi reglamenti tasdiqlansin. Endi aksiyadorlar umumiy yig'ilishi kun tartibidagi asosiy masalalarni ko'rib chiqishga kirishamiz.

2-masala: Hisob komissiyasining miqdoriy va shaxsiy tarkibini tasdiqlash.

Ikkinchi masala bo'yicha: Kun tartibidan Sh.T. Akbaraliev so'zga chiqib, 2026-yil uchun hisob komissiyasini tuzish zarurligini bildirdi. Hisob komissiyasi tarkibiga quyidagi shaxslar tavsiya etildi:

1. Borodinets Demyan Dmitrievich;
2. Tursunaliev Adil Shavkat o'g'li;
3. Neyman Sofiya Panayetis.

Sh.T. Akbaralievni tinglab, aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibidagi masala ovoz berishga qo'yildi.

Ovoz berishdi:

- «TARAFDOR» – **4 183 944 dona** (60.76 %)
- «QARSHI» – **0 dona**
- «BETARAF» – **0 dona**

Qaror qildilar: AJ «FOYKON» hisob komissiyasining miqdoriy va shaxsiy tarkibi tasdiqlansin:

1. Borodinets Demyan Dmitrievich;
2. Tursunaliev Adil Shavkat o'g'li;
3. Neyman Sofiya Panayetis.

3-masala: Jamiyat Kuzatuv kengashining 2025-yil uchun amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisobotini tasdiqlash.

Uchinchi masala bo'yicha: R.R. Ahunov so'zga chiqib, kuzatuv kengashining 2025-yil uchun amalga oshirgan ishlari haqida ma'lumot berdi. 2024-yil yakunlari va 2025-yil 9 oyligi yakunlari bo'yicha aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini tayyorlash, KK raisini saylash, direktor va ichki audit hisobotini har chorakda ko'rib chiqish, biznes-rejani bajarish, 2026-yil uchun biznes-rejani UYda tasdiqlash uchun ko'rib chiqish va boshqa masalalar muhokama qilingan hamda ular bo'yicha qarorlar qabul qilingan 8 ta majlis o'tkazilgan.

Shundan so'ng ovoz berish taklif etildi:

Ovoz berishdi:

- «TARAFDOR» – **4 183 944 dona** (60.76 %)
- «QARSHI» – **0 dona**
- «BETARAF» – **0 dona**

Qaror qildilar:

2025-yil yakunlari bo'yicha Kuzatuv kengashining hisoboti tasdiqlansin va ish qoniqarli deb topilsin.

4-5-masala: Jamiyatning 2025-yil uchun Biznes-reja ko'rsatkichlarining bajarilishi yakunlari bo'yicha Ijro etuvchi organ rahbarining hisobotini tasdiqlash.

Ushbu masala bo'yicha: Jamiyat direktori I.L. Borodinets so'zga chiqib, 2025-yil hisobot davri yakunlariga ko'ra AJ «FOYKON» **2 653 981 ming so'm** miqdorida daromad olganini ma'lum qildi:

Shundan:

- 2024-yil yakunlari bo'yicha to'lash uchun hisoblangan dividendlar ko'rinishidagi daromadlar – **1 025 355 ming so'm**
- Foizlar ko'rinishidagi daromadlar – **253 219 ming so'm**
- Aksiyalarni sotishdan daromadlar – **255 026 ming so'm**
- Kreditorlik qarzini hisobdan chiqarishdan daromad – **1 120 381 ming so'm**
- Foyda solig'i – **116 081 ming so'm**
- Jamiyat faoliyati bilan bog'liq ma'muriy va boshqa operatsion xarajatlar jami – **935 796 ming so'm** miqdorida amalga oshirildi.
- Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar (brokerlik) – **5 419 ming so'm**

2025-yil hisobot davrining sof foydasi **1 596 685 ming so'm**ni tashkil etadi.

2025-yilning 9 oyi yakunlari bo'yicha **826 308 960 so'm** miqdorida dividendlar hisoblangan va to'langan.

Uni bajarishning miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari tahlili:

Moliya-xo'jalik faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari (ming so'm)

Ko'rsatkichlar	2025-yil uchun biznes-reja bo'yicha	2025-yil uchun amalda	%
Investitsiya portfelidan dividendlar olish	1 500 000.0	1 025 354.6	68.4
Foiz ko'rinishidagi daromadlar	200 000.0	253 219.3	126.6
Aksiyalarni oldi-sotdi qilishdan daromadlar	250 000.0	255 026.5	102.0
Boshqa daromadlar, shu jumladan	400 000.0	1 120 380.6	280.1

Ko'rsatkichlar	2025-yil uchun biznes-reja bo'yicha	2025-yil uchun amalda	%
- qonunchilikda belgilangan tartibda majburiyatni hisobdan chiqarishdan daromad	400 000.0	1 120 380.6	280.1
- asosiy vositalar va boshqa mol- mulkni chiqarib yuborishdan daromad	50 000.0	0.0	0.0
Jami daromadlar	2 400 000.0	2 653 981.1	110.6
Jami xarajatlar	1 000 000.0	1 057 296.5	105.7
shu jumladan davr xarajatlari		935 796.2	
moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar		5 419.1	
Foyda solig'i		116 081.2	
Sof foyda	1 400 000.0	1 596 684.6	114.0

2025-yil 9 oyi uchun dividendlar to'langandan keyingi yakunlari bo'yicha taqsimlanmagan foyda **995 122 ming so'mni** tashkil etdi.

I.L. Borodinetnsning ma'ruzasidan so'ng A.V. Aleynikov so'zga chiqib, direktorning «Jamiyatni rivojlantirish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rilayotgan choralar va 2025-yil uchun jamiyatning yillik biznes-rejasining asosiy ko'rsatkichlarini bajarish jarayoni to'g'risida»gi hisoboti yuzasidan ovoz berishni taklif etdi.

Ovoz berishdi:

- «TARAFDOR» – **4 183 944 dona** (60.76 %)
- «QARSHI» – **0 dona**
- «BETARAF» – **0 dona**

Qaror qildilar: 2025-yil yakunlari bo'yicha Biznes-reja ko'rsatkichlarining bajarilishi bo'yicha Ijro etuvchi organ rahbarining yillik hisoboti tasdiqlansin.

6-masala: 2025-yil yakunlari bo'yicha AJ «FOYKON» auditorlik xulosasini ko'rib chiqish va tasdiqlash.

Ma'ruzachi AJ «FOYKON» maslahatchisi Sh.T. Akbaraliev bo'lib, u 2026-yil 3-fevraldagi 26/7-sonli auditorlik xizmatlarini ko'rsatish shartnomasiga asosan «A-UDIT WON» MChJ auditorlik tashkilotining AJ «FOYKON»ning 2025-yildagi moliya-xo'jalik faoliyati tekshiruvi yakunlari bo'yicha ijobiy xulosasini taqdim etdi. Shundan

so'ng: AJ «FOYKON»ning 2025-yil yakunlari bo'yicha audit xulosasini tasdiqlash taklif etildi.

Ovoz berishdi:

- «TARAFDOR» – **4 183 944 dona** (60.76 %)
- «QARSHI» – **0 dona**
- «BETARAF» – **0 dona**

Qaror qildilar: AJ «FOYKON»ning 2025-yil yakunlari bo'yicha audit xulosasi tasdiqlansin.

7-masala: Foyda va zarar schyotini ko'rib chiqish va tasdiqlash, 2025-yil yakunlari bo'yicha foydani taqsimlash, dividendlar va mukofotlar to'lash miqdorlari.

Yettinchi masala bo'yicha: I.L. Borodinets so'zga chiqib, AJ «FOYKON»ning 2025-yilda olingan foydasi haqida batafsil ma'lumot berdi. Hisobot davrida aksiyadorlik jamiyati tomonidan **2 653 981 ming so'm** miqdorida daromad olindi:

Shundan:

- 2024-yil yakunlari bo'yicha to'lash uchun hisoblangan dividendlar ko'rinishidagi daromadlar – **1 025 355 ming so'm**
- Foizlar ko'rinishidagi daromadlar – **253 219 ming so'm**
- Aksiyalarni sotishdan daromadlar – **255 026 ming so'm**
- Kreditorlik qarzini hisobdan chiqarishdan daromad – **1 120 381 ming so'm**
- Foyda solig'i – **116 081 ming so'm**
- Jamiyat faoliyati bilan bog'liq ma'muriy va boshqa operatsion xarajatlar jami – **935 796 ming so'm** miqdorida amalga oshirildi.
- Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar (brokerlik) – **5 419 ming so'm**
- 2025-yil hisobot davrining sof foydasi **1 596 685 ming so'm**ni tashkil etadi.
- 2025-yilning 9 oyi yakunlari bo'yicha **826 308 960 so'm** miqdorida dividendlar hisoblangan va to'langan.
- 2025-yil 9 oyi uchun dividendlar to'langandan keyingi yakunlari bo'yicha taqsimlanmagan foyda **995 122 ming so'm**ni tashkil etdi.

2025-yil foydasidan **805 651 236 so'm** miqdorida dividendlar hisoblash taklif etildi. Bu 1 ta oddiy aksiya uchun nominal qiymati 250 so'm bo'lgan qiymatning 46.8% ini tashkil etib, **117 so'm**ni tashkil qiladi.

2025-yil yakunlari bo'yicha mehnat jamoasiga mukofotlar to'lash bo'yicha o'z majburiyatlarini bajargan davri uchun hisoblangan dividendlarning **1.5%** miqdorida mukofot to'lash taklif etildi.

Shundan so'ng ovoz berish taklif etildi:

Ovoz berishdi:

- «TARAFDOR» – **4 183 944 dona** (60.76 %)
- «QARSHI» – **0 dona**
- «BETARAF» – **0 dona**

Qaror qildilar:

Yillik hisobot, foyda va zarar schyotlari, 2025-yil yakunlari bo'yicha foydani taqsimlash, dividendlar va mukofotlar to'lash miqdorlari tasdiqlansin.

8-masala: 2026-yil uchun yillik Biznes-rejani tasdiqlash.

Sakkizinchi masala bo'yicha: Jamiyat Kuzatuv kengashining raisi R.R. Ahunov so'zga chiqib, yig'ilish qatnashchilariga KKning 2025-yil 17-oktyabrdagi majlisi bayonnomasiga asosan Kuzatuv kengashi tomonidan 2026-yil uchun biznes-reja loyihasi ko'rib chiqilgani va ma'qullanganini ma'lum qildi hamda yig'ilish qatnashchilarini 2026-yil uchun biznes-rejaning asosiy ko'rsatkichlari va mazmuni bilan tanishtirdi.

Shundan so'ng ovoz berish taklif etildi:

Ovoz berishdi:

- «TARAFDOR» – **4 183 944 dona** (60.76 %)
- «QARSHI» – **0 dona**
- «BETARAF» – **0 dona**

Qaror qildilar: 2026-yil uchun Biznes-reja va jamiyatni rivojlantirish strategiyasi tasdiqlansin.

9-masala: 2026-yilda majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun tashqi auditorlik tashkilotini tasdiqlash va uning xizmatlariga haq to'lashning eng yuqori miqdorini belgilash.

To'qqizinchi masala bo'yicha: Tashqi audit va 2026-yil uchun moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq audit o'tkazish uchun auditorlik tashkilotini aniqlash va uning xizmatlariga haq to'lashning eng yuqori miqdorini belgilash bo'yicha;

Bosh buxgalter – I.L. Borodinets «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi Qonunning 59-moddasiga muvofiq majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun auditorlik tashkilotini aniqlash, uning xizmatlariga haq to'lashning eng yuqori miqdorini belgilash va u bilan shartnoma tuzish (uni bekor qilish) to'g'risida qaror qabul qilish aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi vakolatiga kirishini ta'kidladi.

Jamiyat kuzatuv kengashining raisi R.R. Ahunov qatnashchilarga jamiyat nomiga e'lon bo'yicha quyidagi auditorlik tashkilotlaridan tijorat takliflari kelib tushganini ma'lum qildi:

1. «Konsauditinform» agentligi MChJ
2. «OSIYO-AUDIT» MChJ
3. «A-UDIT WON» MChJ

Ko'rib chiqilgandan so'ng, AJ «FOYKON»ning 2026-yil uchun tashqi auditi sifatida «A-UDIT WON» MChJ auditorlik agentligini va uning xizmatlari uchun eng yuqori haq to'lash miqdorini **15 000 000 (o'n besh million) so'm** miqdorida aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi kun tartibiga tasdiqlash taklif etildi.

Shundan so‘ng ovoz berish taklif etildi:

Ovoz berishdi:

- «TARAFDOR» – **4 183 944 dona** (60.76 %)
- «QARSHI» – **0 dona**
- «BETARAF» – **0 dona**

Qaror qildilar: 2026-yil uchun AJ «FOYKON» tashqi auditi etib «A-UDIT WON» MChJ auditorlik tashkiloti va uning xizmatlariga haq to‘lashning eng yuqori miqdori **15 000 000 (o‘n besh million) so‘m** miqdorida tasdiqlansin.

Barcha kun tartibi eshitib bo‘lingandan so‘ng aksiyador so‘zga chiqdi:

1. **Gulyamov Mahmud Rustamovich** – 442 dona oddiy ovoz beruvchi aksiyalar egasi.

Savol: Jamiyat faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlar bilan tanishishni xohlayman?

Javob: AJ «FOYKON»ning **foykon.uz** veb-saytida dividendlar to‘lash bo‘yicha qabul qilingan qarorlar, shuningdek faoliyat haqidagi barcha ma’lumotlar e’lon qilingan!

AJ «FOYKON» vakillari bilan telefon orqali yoki internet orqali bog‘lanish mumkin, ma’lumot uchun: tel: (90)-806-71-78, foykon@mail.ru, foykon.uz sayti.

Aksiyadorlarning bergan savollariga to‘liq javob berildi, shundan so‘ng raislik qiluvchi mazkur yig‘ilishni yopishni taklif etdi. Aksiyadorlar qo‘l ko‘tarish yo‘li bilan bir ovozdan ovoz berishdi.

“ФОЙКОН” АЖ директори



И. Бородинец